



**YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISHDA MA'NAVIYATNING ROLI**

Ilyos Mirziyotov - *O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti dekani Pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsenti,*

G'oyibnazarov Rahmatilla - *O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
rahmatullagaipnazarov@gmail.com*

AHHOTATSIA: *Yangi O'zbekistonni yangi insonlarini, mutaxassislarini
shakllantirishda ma'naviyatlikning ahamiyati beqiyos. Qadimdan xalqimiz
ma'naviyatli-ma'rifatli bo'lgan, ular xalq og'zaki ijodini, ma'naviy meroslarimizni,
mutafakkirlar ilmiy asarlarini yaxshi bilganlar. Taraqqiyot strategiyasini amalga
oshirishda ma'naviyat hal qiluvchi rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, ma'rifat, mutafakkir, strategiya, taraqqiyot, Yangi
O'zbekiston, dunyoqarash, milliy g'oya.*

AHHOTATSIA: *Роль духовности в формировании новых людей и
специалистов нового Узбекистана несравнима. Наш народ издревле духовно
просвещен, знает фольклор, наше духовное наследие, научные труды
мыслителей. Духовность играет решающую роль в стратегии развития.*

Ключевые слова: *духовность, просвещение, мыслитель, стратегия,
развитие, Новый Узбекистан, мировоззрение, национальная идея.*

ABSTRACT: *The role of spirituality in the formation of new people and
specialists of the new Uzbekistan is incomparable. Our people have been spiritually
enlightened since ancient times, they know folklore, our spiritual heritage, the
scientific works of thinkers. Spirituality plays a decisive role in the development
strategy.*

Key words: *spirituality, enlightenment, thinker, strategy, development, New
Uzbekistan, outlook, national idea.*



KIRISH

“Biz uchun ma’naviyat-insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.

Boshqacha aytganda, ma’naviyat-jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir”, [1.267.] – deb yozgan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida.

Bugun tilimizga “Yangi O‘zbekiston”, “Besh tashabbus”, “Harakatlar strategiyasi”, “Taraqqiyot strategiyasi” kabi iboralar kirib keldi. Bu yangi iboralarda mamlakatimizdagi islohotlar o‘z aksini topgan. Yunon faylasufi Suqrot aytganidek, “O‘zgalarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan inson, avvalo, o‘zini o‘zgartirishi lozim”. Inson o‘zini qanday o‘zgartiradi? Inson jamiyatda yashaydi. “Eng katta boylik-bu aql zakovat va ilm, eng yaxshi meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir” [2.24.], - degan Prezidentimiz haq edilar. Negaki mamlakat taraqqiyoti yoshlar qo‘lida, mutaxassislar salohiyatiga, bilimiga bog‘liq ekan, demak ularni dunyoqarashini o‘zgartirish, milliy g‘oyani singdirish, avvalo, ijtimoiy-gumanitar fanlarni yaxshi o‘qitish orqali amalga oshadi.

“...biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renasans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz” [3.42.]. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda ziyolilarning o‘rni beqiyos kattadir. Ziyolilik – bilimdonlik, ma’naviyatlilik, ma’rifatlilik orqali namoyon bo‘ladi.

Ma’naviyat – jamiyatning yuragi, ko‘ksidagi tumoridir. Tumor - insonni yaxshi – yomondan asragani kabi ma’naviyat ham jamiyatni yaxshi – yomondan asraydi. Yana ham to‘g‘rirog‘i ma’naviyatsiz – jamiyat yo‘q. Jamiyatning taraqqiyoti uning harakatlantiruvchi kuchiga bog‘liq. Jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi esa – bu xalq. Xalq tafakkurini, umuman dunyoqarashini o‘stirmasdan, o‘zgartirmasdan ma’rifatni yuksak pog‘onaga ko‘tarmasdan turib yuksak ma’naviyatlilikka erishish mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 26 martda imzolagan “Ma’naviy-



ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida quyidagi falsafiy fikrlardan ogoh bo'lamiz: "ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lam va miqyosini yanada kuchaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga dahldorlik hissini kuchaytirish" zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, "jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni, umummilliy harakatga aylantirish" hamda "ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish", "ma'naviy- axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish" kabi o'ta dolzarb vazifalar Qarorda belgilab berilgan.

Darhaqiqat, mamlakat taraqqiyoti birinchi galda yoshlarga bog'liq. Yoshlarni aql-idrokli, bilimli, oriyatli, did-farosatli qilib tarbiyalashimiz shart. Yoshlar tarbiyasida, avvalo, oila mas'ul. Ko'pincha ota-onalar o'z ayblarini maktabga ag'daradilar. Holbuki, maktabning birinchi galdagi vazifasi bolaga bilim berishdir. Bolani shaxs sifatida shakllanishi oilaga bog'liq. Konstitutsiyamizda oila – davlatning kichik yacheykasi deb bekorga belgilab qo'yilmagan.

Davr oila oldidagi vazifalarni yanada takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda. Inson turmush tarzini yangilash, o'zgartirishni davr taqozo qilmoqda. Yangi turmush tarzining shakllantirishda ma'naviyatning roli beqiyosdir. Qaror Yangi O'zbekistonni yangi yoshlari dunyoqarashini hosil qilishiga xizmat qiladi.

Xalqimiz qadimdan ma'naviyatli bo'lgan. Butun dunyo xalqlariga o'z bilimlari, e'tiqodlari, mardliklari, vatanparvarliklari, oilaparvarliklari, tarbiyachiliklari bilan o'rnak bo'lib kelganlar.

Qadimdan xalqimiz – oilaparvar bo'lgan. Oila – muqaddasdir. Oila – ma'naviyatlilikni shakllantirish vositasidir. Qur'oni Karimda "farzandlar – jannat rayhonlaridir" – degan fikr keltirilgan. Farzandlarni komil insonlar qilib tarbiyalash esa er-xotinni insoniylik farzlaridir. Islom ta'limotida oila, farzand tarbiyasi, insonlar o'rtasida izzat-hurmat muhim ekanligini ko'rsatib o'tilgan. Mufakkir Shayx Aziziddin Nasafiy: "Komil insonda to'rt narsa kamolga yetgan bo'ladi: - ya'ni yaxshi so'z, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma'rifat" – degan edi. Bu to'rt, aytish



mumkin bo'lsa farzni bolaga avvalo, ota-ona o'rgatishi kerak bo'ladi. Chunki, ma'naviyatli oila – jamiyat tayanchi hisoblanadi.

NATIJALAR

Qarorda “2021-2023 yillarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish” vazifasi belgilangan. Har bir tuman, qishloq markazlarida

Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish bu yoshlar dunyoqarashini o'zgartirishiga, milliy urf-odatlarimizni, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga o'rgatishi shubhasiz. Shu bilan birgalikda har bir mahalla guzarlarida, har bir tashkilot binosida ziyo maskani “Ma'naviyat va ma'rifat” xonalari tashkil etilsa bu xonada Muhtaram Prezidentimiz asarlari “Xalq so'zi”, “Yangi O'zbekiston”, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, “Kitob dunyosi”, “Hurriyat”, “Ishonch” kabi gazetalar “Tafakkur”, “Ma'naviy hayot”, “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi” kabi jurnallar mavjud bo'lsa tashkilotga, korxonaga tashrif buyurgan fuqarolar yoki ishchi-xizmatchilar bunday ziyo maskanidan yaxshilik, ezgulik, insoniylik nurlaridan bahramand bo'lardilar.

Qarorda “2021-2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida “Ma'naviyatshunoslik”, magistratura bosqichida “Kasbiy ma'naviyat” fanlari kiritilishi ko'rsatib o'tilgan. Bu topshiriq to'liq ijro qilinsa mutaxassislarimizning ma'naviyatlilik darajasi talab darajasida bo'lishi mumkin.

MUHOKAMA

Muhtaram Prezidentimizning 2021 yil 19 yanvardagi ma'naviy- ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektorda aytgan “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir”, - degan falsafiy fikri mamlakatimizdagi barcha rahbarlarni, ayniqsa, ziyolilarni yanada hushyor torttirdi. Demak, jamiyatda ma'naviyatni roli, ahamiyati beqiyos darajada yuksak. Ma'naviyatlilikni shakllantirish nafaqat bog'cha, maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlari oldidagi vazifalar emas balki butun insoniyat oldidagi insoniy mas'uliyatdir. “Ma'naviyatshunoslik” fanida Markaziy Osiyo



mutafakkirlari ilmiy meroslarini, Axloq, Nafosat, Mantiq fanlarini ham qamrab olsa yaxshi bo'ladi. Avvalo bu insoniylikni shakllantiradigan fanlar alohida-alohida o'qitilsa yanada yaxshiroq, foydaliroq bo'lardi. Ma'naviyatlik insonga xos. Demak, insonlarni, ayniqsa, Yangi O'zbekistonni yangi yoshlari yuksak ma'naviyatli, yuksak bilimli, yuksak didli, yuksak farosatli, yuksak aqlli, bilimli, yetuk mutaxassis bo'lishi zarur. Qaror Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishga xizmat qiladigan eng muhim hujjatdir. Endigi asosiy vazifa esa Prezident imzolagan tabarruk qarorni barcha bandlarini vijdonan bajarish uning mazmun-mohiyatini xalqqa yetkazishdir.

XULOSA

Jamiyat mavjud ekan, unda insonlar yashaydi. Jamiyatning taraqqiyoti xohlaymizmi yoki yo'qmi bilimga, ma'rifatga, ma'naviyatga, insonlarning dunyoqarashiga bog'liq. Ma'naviyat mamlakatda olib borilayotgan barcha islohotlarning asosi hisoblanadi. Chunki qabul qilinayotgan barcha farmon va qonunlar inson manfaati uchun xizmat qilishi zarur.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2021 yil, 267-bet.
2. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2021 yil, 24-bet
3. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2021 yil, 42-bet.
4. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom yettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti – 2017 yil.
5. Saifnazarov, I., Xujayev, M. (2018) Axmad Zaki Validiy islamic culture. *Ekonomika i sotsium*, 2, 55-57.
6. Umarjonov, S.S., Safarov, M.K. (2021). Fahriddin Roziyning "Latoif ul-g'iyosiyot" qo'lyozma asarida aql va e'tiqod masalasining qo'yilishi va uning diniy-falsafiy germeneytik tahlili. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 1058-1068.



7. Adashova, M. (2022) Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosida shaxs ma'naviyatini yuksaltirish masalalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science. 2 (1) ISSN 2181-1784.